

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.E.Toshmurodov

Yosh kurashchilarning harakat ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch-harakat apparati harakatchanligini rivojlantirish metodikasi 107

J.M.Hamrakulov

"Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash..... 114

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari 117

R.A.Jo'rayeva, M.A.Hojiyeva

Bo'lajak filolog-mutaxassislarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish – malakali mutaxassislar tayyorlash omili 120

G.I.Otaboyeva, Z.G.Mamataliyeva

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv 123

O.X.Rashidova

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish..... 126

Z.D.Rasulova

Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish 131

Н.Э.Юлдашева

Эффективные формы и методы развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания 136

Е.М.Любимова, А.И.Кудряшова, М.К.Ахмадалиева, К.Д.Патидинов

Обучение цифровым инструментам и ресурсам студентов - бакалавров педагогического образования 139

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli 145

M.I.Ne'matov

Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari..... 152

I.X.Turdiboyev

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha ayrim mulohazalar 160

IQTISODIYOT**X.X.Бозаров**

Совершенствование научно-методических основ развития малого бизнеса в условиях инновационной экономики 164

FALSAFA**N.S.Badriddinova**

XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar 171

B.B.Dehqonov

Bahouddin Naqshbandning inson kamoloti haqidagi qarashlari..... 175

O.R.Sultonova, S.S.Sadullayev

Qishloq yoshlarini iqtisodiyot tafakkurini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni va ahamiyati 180

I.J.Jabborov

Shayx Najmiddin Kubro ruboilyarida ishq falsafasi 184

G.N.Navro'zova

Xoja Ahror Valiy o'zlikni anglash xususida: qiyosiy-falsafiy tahlil 187

M.E.Xujamov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni..... 191

F.A.Ibroximov

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi huquqiy madaniyatining ahamiyati 197



УО'К: 37.014.5

**“TYUTORLIK FAOLIYATI ASOSLARI” FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINI QO’LLASH**

**ПРИМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ
ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА «ОСНОВЫ РЕПЕТИТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ»**

**APPLICATION OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING THE
SUBJECT "BASIC TUTORING ACTIVITY"**

Hamrakulov Jasurbek Muhammadjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti sport sog‘lomlashtirish majmuasi mudiri

Annotatsiya

Mazkur maqolada OTM learning kredit-modul tizimi, tyutor tushunchasi, “Tyutorlik faoliyati asoslari” fanini o’qitishda zamonaviy axborot ta’lim texnologiyalarining ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Avvalambor, kredit-modul tizimi mamlakatimiz Oliy ta’lim tizimiga ta’limning amaldagidan ko‘ra ancha mukammal, zamonaviy, lekin hamma uchun tushunarli bo‘lgan o‘lchov birligini olib kirganligi ta’kidlangan. Unga ko‘ra OTM o‘quv dasturlari muayyan o‘qish natijalarini ko‘zlovchi turli fan va modullarga bo‘linishi va bu jarayonda tuyutorning vazifalari bayon etilgan. Shuningdek, “Tyutorlik faoliyati asoslari” fanini o’qitishda zamonaviy axborot ta’lim texnologiyalarini qo’llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается кредитно-модульная система вузов, понятие тьютора, значение современных информационных и образовательных технологий в преподавании предмета «Основы тьюторства». Прежде всего было отмечено, что кредитно-модульная система ввела в систему высшего образования нашей страны более совершенную, современную, но общепонятную единицу измерения образования. В соответствии с ним образовательные программы высших учебных заведений разделены на различные предметы и модули, ориентированные на конкретные результаты обучения, и описаны задачи тьютора в этом процессе. Также даются рекомендации по использованию современных информационных и образовательных технологий при преподавании предмета «Основы репетиторства».

Abstract

This article discusses the credit-module system of HEIs, the concept of a tutor, the importance of modern information and educational technologies in teaching the subject "Basics of Tutoring". First of all, it was noted that the credit-module system has introduced a more perfect, modern, but universally understandable measurement unit of education into the higher education system of our country. According to it, the educational programs of higher education institutions are divided into different subjects and modules aimed at specific learning outcomes, and the tasks of the tutor in this process are described. Also, recommendations on the use of modern information and educational technologies in teaching the subject "Basics of Tutoring" are given.

Kalit so‘zlar: “Tyutorlik faoliyati asoslari” fani, zamonaviy axborot ta’lim texnologiyalari, kredit-modul, o‘lchov birliklari.

Ключевые слова: наука «Основы репетиторства», современные информационные и образовательные технологии, кредитный модуль, единицы измерения.

Key words: "Basics of tutoring" science, modern information and educational technologies, credit module, units of measurement.

KIRISH

Bizga ma’lumki, hayotda ko‘p narsalarning qiymati bor, ular ma’lum vaqtiga oralig‘ida qadrlanadi. Qiymatning o‘lchov birliklari esa turli: vaqt o‘lchov birligi – sekund, uzunlik o‘lchovi – metr, og‘irlik – kilo, suyuqlik – litr, elektr kuchlanish o‘lchovi – amper. Bugungi kunda ta’limning, xususan Oliy ta’limning ham o‘lchov birligi esa kredit-modul sanaladi. Hozirda mamlakatimizda oliy ta’limning talabalar progressini, ularning mutaxassis sifatida shakllanishini muntazam ravishda baholab boruvchi hamma uchun tushunarli bo‘lgan o‘lchov birligi aynan akademik kredit sanaladi. Kredit-modul tizimi avvalambor, mamlakatimiz Oliy ta’lim tizimiga ta’limning amaldagidan ko‘ra ancha mukammal, zamonaviy lekin hamma uchun tushunarli bo‘lgan o‘lchov birligini olib kiradi. Unga ko‘ra OTM o‘quv dasturlari muayyan o‘qish natijalarini ko‘zlovchi turli fan va modullarga

PEDAGOGIKA

bo'linadi. Har bir fan yoki modul esa undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab muayyan miqdordagi kreditlarda aks etadi. Masalan, har bir fan o'ttacha 5, 6 yoki 7.5 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi va tegishli miqdordagi kreditlarni to'plagandan so'ng unga bakalavr yoki magistratura darajasi berilishi belgilanadi. Oliy ta'lilda talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni qo'lga kiritishi uchun ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini ("learning workloads") bajarishi zarur. O'qish yuklamasi bu talaba muayyan o'qish natijalariga erishishga qaratilgan barcha tizimli o'qish mashqlari va harakatlarini bajarish uchun kerak bo'ladigan vaqtadir. Talabaning o'quv yuklamasini to'g'ri belgilashda esa tyutor faoliyati muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ma'lumotlarga ko'ra, tyutor — talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirot etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashuvchi inson bo'lib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroficha yechim topish bilan shug'ullanadi [1]. Shuningdek, tyutorlarning asosiy maqsadi — ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda universitet va talabalar o'rtaqidagi munosabatlarni mustahkamlash, talabalarning universitet hayoti va ta'lim jarayoniga moslashishiga ko'maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish va talabalarda tanlagan kasbiga muhabbatni oshirishdir. Shu bilan birga ular yigit-qizlarning dars mashg'ulotlarini muntazam tahlil qilib boradi va sifatini oshiradi, ularning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy ahvoldidan doimiy xabardor bo'lib turadi [1]. Aynan tyutor faoliyatiga qaratilgan "Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitishda hamkorlikka asoslangan, talabalarning faolligini oshirishga mo'ljallangan, boshqalarning fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgalar manfaatlari bilan hisoblashish, ulardan o'rganish, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning «men»ligini sezish, his qilish, o'zini boshqarish, fikrini lo'nda va aniq bayon qila olishga o'rgatishga qaratilgan «interfaol» o'qitish usullari guruhdagi kichik guruuhlar o'rtaida raqobat muhitini vujudga keltirib, tinglovchilarni harakatchanlikka boshlab, ruhlantiradi, natijada o'quvchilar hamkorlikka o'rgana boshlaydilar. Har qanday interfaol usul to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llanilganida o'rganuvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir. Dars mavzusiga oid multimediya, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yana-da qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi, buning uchun esa o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga «men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman» deya o'ziga savol berishi ya'ni, an'anaviy ta'limdandan qochib, noan'anaviy ta'lim berishga intilishi lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida "Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitish jarayonida o'qituvchi dastlab: darsning maqsadi; maqsadga erishish yo'llari; o'quv materiallarini taqdim etish usullari; o'qitish metodlari; o'quv topshiriqlarining turlari; muhokamalar uchun savollar; munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari; o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.

U.N.Taylakovning fikriga ko'ra, ta'lim jarayonini axborotlashtirishning rivoji alohida axborot resurslarini birlashtirilishi orqali axborot muhitlarini yaratish bilan bevosita bog'liq.[2] Bunday muhitlarni tashkil etishda, avvalambor, ta'lilda axborotlashtirishni tashkil etish, ya'ni, barcha o'quv ma'lumotlarni Internet tarmog'iga chiqish imkoniyatlarini yaratish, o'quv jarayonini nazorat qilish, axborot texnologiyalari negizida elektron ta'lim resurslarini yaratish orqali tinglovchilarni faoli bilim oluvchilarga aylantirish mustaqil ta'lim olishni tashkil etish va boshqarish kabi vazifalarni amalga oshirish zarur hisoblanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Shu bois, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta'lim sifatini oshirish va ko'zlangan maqsadga erishishda Internetga joylashtirilgan elektron ta'lim resurslar (media vositalar, video darslar va boshqalar) dan foydalanish samarali ekanligi o'z isbotini topmoqda. Internet texnologiyalarining ta'lilda paydo bo'lishi "Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitish jarayonida ta'lim jarayonini vizual taqdimotli o'quv-ma'lumotlari bilan boyitish, dars mashg'ulotlarining sifatli o'tilishi va o'quv manbalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga

xizmat qiladi [95; 10-b.]. Ilmiy-izlanishlarimiz natijasida shuni aytish mumkinki, ayni paytda "Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitish samaradorligini oshirish uchun ".uz" domenida axborot ta'lif platformasini yaratish lozim. Bu tyuter faoliyatiga oid tajribalarni, keyslarni, tyuter va talabalar bilan muloqotidagi ayrim amaliy va nazariy ma'lumotlarni, jarayon va xodisalarni xoxlagan vaqtida va joyda vizual shaklda ko'rish imkoniyatini yaratadi. Ushbu Internet tarmog'ida yaratilgan axborot ta'lif platformalaridan foydalanish uchun, avvalambor, uni pedagogik va psixologik tamoyillar va talablar asosida yaratish, ularni sinovdan o'tkazishni talab etadi. Fanga oid Internet tarmog'iga mo'ljallangan ta'lif platformalari va unga mos elektron ta'lif resurslar an'anaviy o'quv nashrlar (darsliklar va o'quv qo'llanmalar) ning mazmuniga mos bo'lishi lozim. Ya'ni, yaratiladigan elektron ta'lif resurslar darsliklar asosida yaratishni taqozo etadi. "Tyutorlik faoliyati asoslari" fanining o'quv ta'minotini yaratish asosiy vazifa sanaladi. Shu bois, Internet tarmog'ida "Tyutorlik faoliyati asoslari" faniga mo'ljallangan ta'lif platformasi va unga mos elektron ta'lif resurslar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- 1.O'qishni axborotlashtirish vositalari doimiy ravishda o'quv ma'lumotlarni sodda tarzda yangilanishi, ularni tashkil etish shakllarning tamoyillariga asoslanishi lozim. Elektron ta'lif resurslarni mazmuni o'quvchilarning o'z faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi talab etiladi.

- 2.Elektron ta'lif resurslar potentsiali o'quvchilarning bilim darajasi bo'yicha tasniflanishi va kompetentsiyaning barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim: bilim, ko'nikma, malaka qobiliyat, shaxsiy munosabat.

- 3.Elektron ta'lif resurslarni mazmuni va shakli o'quvchilarning qo'shimcha ta'lif tizimidagi ehtiyojarini chuqur farqlashni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

- 4.Elektron ta'lif resurslar uchun manbalar o'quvchining tajribasi va amaliy bilimlariga asoslanishi kerak. Bunday elektron ta'lif resurslari bilan ishlash o'quv-ma'lumotlarni sezilarli darajada osonlashtirilishi va o'quvchilarning o'quv faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari bilan har xil parametrlarda birlashtirilishi lozim.

- 5.Elektron ta'lif resurslar bilan ishlashni tugatgandan so'ng sezilarli amaliy natijalarga erishish va iloji bo'lsa, tinglovchilarning shaxsiy maqsadlariga erishish kerak.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish joizki, ilmiy izlanishlarimizning natijalariga ko'ra "Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunda o'quvma'lumotlarni vizual shaklda taqdim etish orqali tyuterlarning ijodiy faolligini oshiriladi va mustaqil ta'lif olishi ta'minlanadi.

"Tyutorlik faoliyati asoslari" fanidan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarga ega bo'lish uchun kompyuterning pedagogik dasturiy vosita (elektron darsliklar, animatsiya effektlari, elektron o'quv-uslubiy majmualar, audio va video vositalar, onlayn va offlays testlar)laridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

"Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini axborot texnologiyalari vositalari asosida tashkil etish uchun yuqorida e'tirof etilgan tamoyillarga tayangan holda Internet tarmog'ida ta'lif platformasini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda o'quvchilarni vizual axborotli ma'lumotlar bilan ta'minlashga, o'quv faoliyatini mustaqil ravishda tashkil etishga hamda o'zini-o'zi onlayn shaklda baholash imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://yuz.uz/uz/news>
2. Taylakov N.I., M.Allambergenova Informatikadan interaktiv o'quv majmualar yaratishga qo'yiladigan talablar // Fizika, matematika va informatika. Toshkent, 2009. – № 2. – В. 82-87.
3. Тайлаков Н.И., Мирсанов У.М. Интернет тармогида математика фанидан web-порталларни яратиш муаммолари // Таълимда инновациялар: стратегия, назария ва амалиёт: Халқаро илмиймақолалар тўплами II қисм. – Самарқанд, 2018. – Б. 133–137.
4. Тайлаков Н.И., Истроилова Л. Интерактив электрон доска билан ишлаш усууллари // Физика, математика ва информатика. – Тошкент, 2019. –№ 1. – Б. 95-104.
5. Тайлаков У.Н. Электрон ахборот таълим мухитини яратиш технологиялари. Умумий ўрта таълим мактаблари учун //Монография. –Тошкент, 2016. –160